

**A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim”
fakulteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida stajor-o`qituvchisi
Berkinova Charos Islomovnaning 531-20-guruhda o`tkazilgan ochiq dars
BAYONNOMASI**

25.03.2022 yil

**Qatnashdilar: 531-20-guruh talabalari,
Kafedra professor-o`qituvchilari**

A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” fakulteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida stajor-o`qituvchisi Berkinova Charos 2022-yilda 25-mart 531-20-guruhda ochiq dars o`tkazdi. Ochiq darsda 531-20-guruh talabalari hamda “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida professor – o`qituvchilari – kat.o`q. M.Usmonova, A.Hamroyeva, M.Mirazimova, G.Xamidova, D.Tashtemirova, M.Qilichova, “Musiqqa madaniyati” fakulteti katta o`qituvchisi S.Raimjonov qatnashdilar.

Ochiq dars fanning nomi: “ Bolalarning musiqiy ta’limi”.

*Ochiq darsning mavzusi: “Ko’rgazmalilik metodi, So’zlab berish
metodi, Amaliy faol metod*

Ochiq dars turi: Seminar.

Ochiq darsning rejasi : 1.Musiqani o`rgatishda notalarni yozib ko`rsatib o`rgatish

2.Notalarni ovozda kuylab berish metodi

3.Notalarni kuylab ijro etib berish

Yuqoridagi rejalar asosida talabalar “Ko’rgazmalilik metodi” ,“So’zlab berish metodi”, “Amaliy faol metod” guruhlariga bo`linib mash`gulotni olib borishdi. 1-reja: “ Musiqani o`rgatishda notalarni yozib ko`rsatib o`rgatish.”rejasi asosida guruh talabalar Ko’rgazmalilik metodi orqali ma’lumotlar berib 1-rejani yoritib berishdi. “So’zlab berish metodi ”, Amaliy faol metodi “ 1-reja asosida tayyorlangan savollarga javob berishdi.



SHOT ON REDMI 7
AI DUAL CAMERA





O'qituvchi Ch. Berkinova 1-rejani umumiy xulosaladi. 2 reja "Notalarni ovozda kuylab berish metodi" reja asosida "Ko'rgazmalilik metodi", "So'zlab berish metodi", "Amaliy faol metodi" guruhlar talabalarini 2-reja bo'yicha zanjir metodida reja asosida ma'lumotlar berib rejani yoritib berishdi. 2-reja asosida tayyorlangan krassvordni guruhlariga tarqatildi va 5daqqa vaqt berildi, talabalar krassvordlarni bajarib bo'lgach, o'qituvchi Ch. Berkinova rejani umumlashtirib xulosaladi. So'ngra 3-rejani 3ta guruhlar yoritib berdi 3-rejani o'qituvchi tomonidan raqs ijro etib berdi. Mavzu yuzasidan mustahkamlovchi tahliliy tushunchalar talabalar so'rab o'tildi. Talabalarga mustahkamlovchi savollar berildi talabalar javob berishdi. Mavzuni o'qituvchi xulosaladi. Darsda faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantirdi. Dars yakunida guruh talabalarini baholandi. Ochiq dars tugaganidan so'ng dars muhokamasi bo'lib o'tdi. Unda kafedra professor-o'qituvchilari M. Usmonova, M. Mirazimova, E. Hamroyeva, G. Xamidova, D. Toshmurova, M. Qilichova, Usmonova Mahfuza fakulteti "Musiqqa madaniyati" kafedrasini katta o'qituvchisi S. Raimjonov ochiq dars yuzasidan o'z fikrlarini bildirishdi.

Muhokamalar avvalida Ch. Berkinovaning o'ziga so'z berildi:

"Avvalo, meni bugungi 531-20-guruh talabalarini bilan birgalikda o'tkazilgan ochiq darsimga tashrif buyurganingiz uchun sizlarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. "Bolalarning musiqiy ta'limi" fanidan **"Ko'rgazmalilik metodi, So'zlab berish metodi, Amaliy faol metod"** mavzusiga talabalar ma'lumotlarga ega bo'lishi deb o'ylayman, oldimga qo'ygan maqsadimga erishdim deb hisoblayman – dedi Ch. Berkinova

Katta o'qituvchi S. Raimjonov: "Men darsni qoniqarli deb xisoblayman hamma ish o'z vaqtida bararildi, vaqt teng taqsimlandi. O'qituvchining o'zini tutishi talab darajasida. Dars ajoyib o'tdi va menga juda ham manzur bo'ldi" – dedi.

Katta o'qituvchi M. Usmonova: "Yuqoridagi barcha fikrlar to'g'ri, men ham darsni kuzatdim, dars jarayoni to'g'ri tashkil etilgan, dars mavzusi va rejalarini o'qib eshittirildi, guruhlar ham o'z vaqtida nomlandi, o'qituvchining o'zini tutishi, kiyinish madaniyati, nutq madaniyati barchasi o'qituvchiga mos va o'z o'rnida.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, 2-kurs talabalari bilan olib borilgan ochiq darsda shaxsan men juz'iy xato va kamchilik yo'l qo'yilmadi deb hisoblayman. Men o'qituvchi Ch.Berkinovanning darsini qoniqarli deb baholayman.

Katta o'qituvchi.G.Xamidova: Ch.Berkinovanning "Men o'tkazgan ochiq darsini qoniqarli deb hisoblayman.Dars jarayonida meyoriy hujjatlar bilan ishlandi.Talabalar daftarlari tekshirildi, dars vaqtida boshlandi.

Stajior o'qituvchiM.Qilichova: "Men ham yuqoridagi fikrlarga qo'shilaman, ochiq darsni qoniqarli deb xisoblayman.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qaror qiladi:

1. Bildirilgan fikr mulohazalarni e'tiborga olib, Ch.Berkinovanning "Bolalarning musiqiy ta'limi fanidan " Ko'rgazmalilik metodi, So'zlab berish metodi, Amaliy faol metod" mavzusida o'tgan ochiq darsi ijobiy baholab, qoniqarli deb hisoblansin.

Ilmiy kengash kotibi:

Dars kuzatuvchilar:



G.Xasanova

prof.X.A.Meliyev

Kat. o'q. S.Raimjonov

K Kat o'q. M.Usmonova

Kat o'q. G.Xamidova

